

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olishda profilaktik tadbirlar

Iskandar Axmataliyevich Miralov

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar Bosh boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi

Annotatsiya: Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish masalasi zamonaviy sanoat taraqqiyoti sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, yuqori texnologiyalarning keng joriy etilishi, xavfli moddalar va energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini oshib borayotgani favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish ehtimolini keskin kuchaytirmoqda. Shu bois, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, moddiy va texnik resurslarni saqlab qolish, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Profilaktik tadbirlar nafaqat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytiradi, balki favqulodda vaziyatlar oqibatlarini minimallashtirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyat, kimyoviy avariylar, geologik va gidrometeorologik hodisalar, radiaktiv zararlanish

Preventive measures to prevent emergencies at production facilities

Iskandar Akhmatalievich Miralov

Tashkent regional Main Department of Emergency Situations Life Safety Training Center

Abstract: The issue of preventing emergencies at production facilities is of particular importance in the conditions of modern industrial development. Today, the complexity of production processes, the widespread introduction of high technologies, the increasing use of hazardous substances and energy sources sharply increase the likelihood of emergencies. Therefore, the development and implementation of preventive measures aimed at preventing emergencies on a scientific basis is an urgent task. Prevention of emergencies is an important factor in protecting human life and health, preserving material and technical resources, and ensuring the continuity of

production. Preventive measures not only reduce possible risks, but also serve to minimize the consequences of emergencies.

Keywords: emergency, chemical accidents, geological and hydrometeorological phenomena, radioactive contamination

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning tasnifi

Favqulodda vaziyat - bu muayyan hududda inson hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga, moddiy boyliklarga zarar yetkazuvchi yoki yetkazish xavfi mavjud bo'lgan holatdir. Ishlab chiqarish obyektlarida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar asosan texnogen xarakterga ega bo'lib, ular texnologik jarayonlarning buzilishi, ishlab chiqarish uskunalarining nosozligi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik hamda inson omili bilan chambarchas bog'liq.

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlar bir nechta asosiy turlarga bo'linadi. Yong'in va portlashlar yonuvchan va portlovchi moddalardan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqadi. Kimyoviy favqulodda vaziyatlar esa zaharli moddalar sizib chiqishi yoki tarqalishi oqibatida yuzaga kelib, atrof-muhit va aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Bundan tashqari, energetik, mexanik va texnologik favqulodda vaziyatlar ham ishlab chiqarish obyektlari uchun xos hisoblanadi.

1-jadval.

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlar tasnifi

FVlar turi	Asosiy sabablar	Kutiladigan oqibatlar
Yong'in va portlashlar	Yonuvchan moddalar bilan ishlashdagi xatolar	Inson talofati, moddiy zarar
Kimyoviy avariylar	Kuchli te'sit etuvchi moddalar sizib chiqishi	Ekologik zarar, zaxarlanish
Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar	Elektr, gaz va suv tarmoqlaridagi nosozliklar	Ishlab chiqarish to'xtashi
Texnologik FV	Texnologik jarayon buzilishi	Mahsulot sifati pasayishi
Radiaktiv moddalar bilan bog'liq avariylar	Radiaktiv moddalar bilan ishlashdagi xatolar	Ekologik zarar, nurlanish

Ishlab chiqarish obyektlariga tabiiy ofatlarning ta'siri, tabiiy ofatlarning ikkilamchi faktorlari

Ishlab chiqarish obyektlar loyihalash, qurilishi uchun yer tanlashda joyning rel'efi, tabiiy-geografik sharoitidan kelib chiqqan holda tabiiy ofatlar (geologik va gidrometeorologik hodisalar) alohida hisobga olinadi. Geologik va gidrometeorologik hodisalar xavfi yuqori hududlarda bino va inshootlar qurilish meyorlari va qoidalariga asosan loyiha-smeta hujjatlari asosida quriladi va jihozlanadi. Tegishli xizmatlar tomonidan bino va inshootlar, ishlab chiqarish asbob-uskunalari va vositalari texnik holati nazoratga olinadi.

Tabiiy ofatlar xususan yuqori balli zilzilalar, sel, suv toshqinlari ishlab chiqarish obyektlari hududidagi nosoz, eskirgan, texnik holatini yo'qotgan hududlarida yong'in-portlash, ishlab-chiqarishning izdan chiqishi, kimyoviy, radiaktiv zararlanishlar bilan bog'liq vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, ishlab chiqarish obyektlari rahbar xodimlarini hamda ishchi-xizmatchilarini amaldagi huquqiy-meyoriy hujjatlar talablariga asosan fuqaro muhofazasi sohasida tayyorgarlikdan o'tkazib borish, obyekt hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish profilaktik tadbirlarini rejalashtirish va muntazam o'tkazilishini ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish

Favqulodda vaziyatlarni prognozlash - favqulodda vaiyat yuz berishi mumkinligi sabablarini, uning o'tmishdagi va hozirdagi manbalarini tahlil etish asosida uning sodir bo'lishi va rivojlanishi ehtimolini oldindan aks ettirish.

Prognoz ma'lumoti - favqulodda vaziyatlarga olib keladigan xavfli tabiiy-texnogen jarayonlar va hodisalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi ehtimolini aks ettiruvchi ma'lumot turi.

Favqulodda vaziyat sodir bo'lishi va rivojlanishi ehtimolligini oldindan aytib berish, uning yuzaga kelishining mumkin bo'lgan sabablarini, o'tgan zamonda va hozirdagi manbalarini tahlil qilish asosida oldindan aytib berishdir.

Favqulodda vaziyatlar monitoringidan ko'zlangan umumiy maqsad, intellektual, axborot va texnologiyalarimkoniyatlarini umumlashtirish asosida favqulodda vaziyatlar prognozining aniqligi va ishonchligini oshirishdan iborat. Monitoring ma'lumotlari favqulodda vaziyatlar prognozi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda favqulodda vaziyatlar prognozi - bu ijodiy tadqiqot mahsuli bo'lib, biron bir obyekt, hodisa yoki jarayonning kelgusidagi holati to'g'risida ma'lumotlar to'plashdir.

Favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablarga texnik, tashkiliy va inson omili bilan bog'liq omillar kiradi. Texnik sabablarga asosan ishlab chiqarish uskunalarning eskirishi, texnik xizmat ko'rsatishning yetarli darajada olib borilmasligi bilan izohlanadi.

Tashkiliy sabablar esa ishlab chiqarish jarayonining noto'g'ri tashkil etilishi, xavfsizlik talablariga rioya qilinmasligi, mehnat muhofazasi bo'yicha nazoratning sustligi bilan bog'liq. Inson omili esa xodimlarning yetarli bilim va malakaga ega emasligi, mas'uliyatsizlik va intizom buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlar texnik, tashkiliy va ijtimoiy yo'nalishdagi choralarni o'z ichiga oladi.

Texnik profilaktik tadbirlar ishlab chiqarish uskunalari muntazam texnik ko'rikdan o'tkazish, zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish, avtomatlashtirish va monitoring vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu tadbirlar uskunalardagi nosozliklarni erta aniqlash va bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tashkiliy tadbirlar esa favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha reja va yo'riqnomalarni ishlab chiqish, mas'ul shaxslarni belgilash hamda xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda boshqaruv va monitoring

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda samarali boshqaruv tizimini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bunda xavflarni baholash, monitoring olib borish va profilaktik tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Monitoring tizimi yordamida ishlab chiqarish obyektlarida xavfli omillar doimiy ravishda kuzatib boriladi. Bu esa favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

2-jadval.

Profilaktik tadbirlarning samaradorligi.

Profilaktik tadbir	Samaradorlik
Xodimlarni o'qitish	Xavfsizlik madaniyati oshadi
FVlar oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalarini yaratish hamda doimiy shayligini ta'minlash	Favqulodda vaziyatlarda talofatlar miqdorini kamaytiradi.
Texnik nazorat	Nosozliklar erta aniqlanadi
Monitoring tizimi	Xavf darajasi kamayadi
Rejalashtirish	FV oqibatlari minimallashtiriladi

Ishlab chiqarish obyektlarida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlardan ishchi-xizmatchilarni muhofaza qilish hamda obyekt barqarorligini saqlash tadbirlari

Ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen xususiyatli) obyekt ishchi-xizmatchilarining hayot xavfsizligi va obyekt barqarorligini ta'minlash sohasida quyidagi tadbirlar bajarilishi lozim:

- xodimlarni o'qitish;
- kuch va vositalarning shayligi;
- amaliy o'quv mashq'ulotlari;
- texnik nazorat;
- monitoring tizimi;
- evakuatsiya tadbiri uchun baza tayyorlash;
- rejalashtirish.

XULOSA

Ma'lumki yer sharida favqulodda vaziyatlardan kafolatlangan soha yo'q, hamda inson favqulodda vaziyat vaqtida o'zi va o'zgalarning hayotini saqlab qolishi uchun favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligiga ya'ni bilim va ko'nikmalariga tayanadi. Bu

esa fuqaro muhofazasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam shakllantirib borishlarini talab etadi.

Ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni tizimli va ilmiy asosda amalga oshirish inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, moddiy zararlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish obyektlarining rahbar xodimlari hamda ishchi-xizmatchilarining favqulodda vaziyatlar bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarga obyekt shtatdagi xodimlarni to'liq jalb etilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" 2006 yil 28 sentabr
2. A.Q.Nurxo'jayev, M.Y.Yunusov, I.X.Xabibullayev "Favqulodda vaziyatlar va muhofazasi tadbirlari", Toshkent, 2001 yil.
3. A. Nurxodjayev. "Tabiiy ofatlar, hosil bo'lishi, tasnifi, aholi va hududlarni muhofaza qilish qoidalari", Toshkent, FMI, 2006 yil.
4. G'.Y.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.I.Hamrayeva. "Hayot faoliyati xavfsizligi", Toshkent, 2009 yil.
5. "Favqulodda vaziyatlar monitoring va prognozlash" (uslubiy qo'llanma). Toshkent-2022-yil.